

### **Tayanch doktoranturaga quyidagilar qabul qilinadi:**

- bakalavr va magistr diplomlari (faqat yuridik soha bo'yicha) yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi (ixtisoslik bo'yicha) diplomga ega bo'lganlar;
- Akademiya magistraturasi bitiruvchilari;
- yuridik soha bo'yicha bakalavr diplomiga ega O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi magistraturasi bitiruvchilari;
- yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lganlar;
- ilmiy tadqiqotlar uchun tanlangan mavzu bilan bog'liq kamida uch yillik ish tajribasi;
- chet tilini bilish darajasining milliy yoki tegishli xalqaro sertifikatiga ega bo'lganlar.

### **Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:**

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- oliy ta'lim muassasasi bakalavr va magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- milliy yoki tegishli xalqaro sertifikatning nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

### **Doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:**

- yuridik fanlar nomzodi yoki yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;
- yuridik fanlar nomzodi yoki yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga

hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

**Doktoranturada o'qishga talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:**

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi; oliy ma'lumot, yuridik fanlar nomzodi yoxud yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.